

10-2Mat 24 guruh magistrlar uning pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi Jumayeva Mehribon Abduvohidovna bilan birgalikda Buxoro Shahar "Somoniylik nomidagi madaniyat va istirohat bog'i"ga tashrifi to'g'risida

## MA'LUMOTNOMA



Buxoro davlat universiteti Fizika-matematika va axborot texnologiyalari fakulteti Matematika ixtisosligi 1-kurs magistrantlari "Pedagogik kreativlik va kompetentlik" fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash va tabiat qo'ynida dars o'tish maqsadida fan o'qituvchisi Jumayeva Mehribon Abduvohidovna bilan birgalikda Buxoro Shahar "Somoniylik nomidagi madaniyat va istirohat bog'i"ga tashrif buyurishdi.

Tabiat qo'ynida bolalarga dars o'tish-bu zamonaviy ta'limda tobora ommalashayotgan, sog'lom va samarali yondashuvdir. Ochiq havoda, tabiiy muhitda o'qitish bolaning jismoniy, ruhiy va aqliy rivojlanishiga ta'sir qiladi. Ayniqsa, tanlangan hudud tarixiy ekanligi nur ustida a'lo nur bo'ladi.

Somoniylik bog'i – Buxoroning tarixiy-yodgorlik bog'i Buxoro shahri markazida, qadimiy shaharning markaziy qismida, Ismoil Somoniy maqbarasi joylashgan hududda joylashgan. Somoniylik bog'i – Buxoro shahrining eng mashhur va tarixiy bog'laridan biridir. U tarixiy qadriyat va zamonaviy obodonlashtirish uyg'unlashgan joy. Ko'plab sayyohlar, ziyoratchilar va mahalliy aholining sevimli maskani hisoblanadi. O'zida Ismoil Somoniy maqbarasi, Chashma Ayub maqbarasi va Buxoro

muzeyining ayrim qismlarini jamlagan. Bog'ning markazida joylashgan Ismoil Somoniy maqbarasi IX asrda qurilgan bo'lib, Somoniylar sulolasining asoschisi Ismoil Somoniyga bag'ishlangan. Bu maqbara markaziy Osiyodagi eng qadimiy musulmon me'morchiligi namunasi bo'lib, to'liq g'ishtdan qurilgan. Uning atrofida barpo etilgan bog' ham tarixiy-madaniy obidalarni saqlab qolish va ommaga tanitish maqsadida obodonlashtirilgan. Bog'da manzarali daraxtlar, gulzorlar, favvoralar, piyodalar yo'laklari mavjud. Dam olish uchun skameykalar, soyabonli hududlar, bolalar maydonchalari, tungi yoritgichlar o'rnatilgan. Turistlar uchun qulayliklar yaratilgan, tarixiy joylar haqida axborotlar beruvchi belgilar mavjud. Har yili minglab mahalliy va xorijiy sayyohlar Somoniylar bog'iga tashrif buyuradi. Tarixiy arxitektura, shinam muhit va tinchlik – bu joyni Buxoroning yuragi sifatida ko'rsatadi.

Darsda barcha magistrilar faol ishtirok etishdi.

Sana: 02.05.2025